

Yangi davrda Falastin

Hikmatov Ulug’bek

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi davrda Falastin davlati haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Falastin majorasi, B.Netanyaxu, urush,sulh

Isroilda ancha yillardan beri hukumat tepasiga ilk bor so'l markazlashgan kuchlar kelishi mumkin. O'tgan haftada Binyamin Netanyahuning muxoliflari koalitsiya tuzish haqidagi kelishuvga erishishdi. Endi yangi shakllantirilgan koalitsiyani Knesset tasdiqlashi lozim va amaldagi bosh vazirda vaziyatni o'zgartirish uchun bir haftacha fursat bor.Bu nafaqat Isroil, balki Yaqin Sharq uchun ham katta yangilikdir: ultrao'ng qarashlarga ega Binyamin Netanyahuning 15 yillik (1996-1999 va 2009-2021) boshqaruvi davrida Ariel Sharonning falastinliklar bilan chegarani delimitatsiya qilish tashabbuslari qariyb yo‘q qilindi va unutildi. Iordan daryosining g‘arbiy sohilidagi yahudiy manzilgohlari Falastin hududiga ancha kirib bordi. Ikki millat uchun ikki davlat qurish konsepsiysi haqida 2014 yildan beri churq etilmaydi. Albatta, hozir hokimiyat tepasiga so'l liberallar kelib, barchasini birdaniga o'zgartirib tashlaydi deb o'yash soddalik bo'ladi. Bosh vazirlikni dastlabki ikki yilda rotatsiya bo'yicha «Yamina» partiyasi yetakchisi Naftali Bennet egallaydi. U mo'tadil koalitsiyaga g‘oyaviy hamfikr bo'lgani uchun emas, Netanyahuni ag'darish uchun qo'shilgan.Falastin-Isroil masalalarini hal qilish bo'yicha jarayon 1993 yildayoq yo'lga qo'yilgan, lekin shu vaqtgacha birorta ham hukumat, hatto mo'tadillari ham eng birlamchi kelishuvlardan nariga o'ta olishmagan.Yaqin Sharqda tinchlik o'rnatish jarayoni 30 yil ilgari AQSh ishtirokida amalga oshirila boshlangan, o'shandan buyon rasmiy Vashington asosiy o'rtakash

rolini o‘ynab keladi. AQSh rasman Yevroittifoq, Rossiya va BMT bilan bir qatorda Yaqin Sharq masalasi bo‘yicha kvartetga kirsa-da, amalda bu funksiyani mustaqil ravishda bajarib kelyapti.Jarayon boshlanishi haqidagi ilk kelishuvga 1993 yil 9 senyabrda Osloda imzo chekilgan va bir necha kun o‘tib Vashingtonda, Oq uy hovlisida Bill Clinton ishtirokida «Prinsiplar haqidagi deklaratsiya» bilan mustahkamlab qo‘yilgan.O‘shanda tomonlar bir-biriga xavfsizlikni ta‘minlash, Quddusning maqomi va boshqa munozarali hududlar bo‘yicha kelishuvga erishish hamda falastinlik qochqinlar muammosini aqalli qisman hal qilishga va’da berishadi. Bularga erishishga besh yil kerak bo‘lishi ko‘zda tutilgandi.Oradan deyarli 30 yil o‘tdi, biroq hech narsa o‘zgargani yo‘q. Yaqin Sharq masalasi Amerika diplomatiyasining eng yorqin muvaffaqiyatsizliklaridan biriga aylandi.«Washington oramizdagi muammolardan biridir, uning yechimi emas», degandi 2019 yil BBC bilan suhbatda Soib Urayqot. U uzoq yillar davomida falastinliklar tomonidan kelishuv jarayoniga boshchilik qilgan.G‘arbdagi ko‘plab mutaxassislar uning fikriga qo‘shiladi. Falastin-Isroil muammosi AQShning respublikachi va demokrat siyosatchilari birdamlik ko‘rsatadigan kam sonli masalalardan biridir. AQShning shu vaqtgacha hokimiyatda bo‘lgan barcha ma’muriyatlari Isroil tomon bo‘lib kelgan.AQShning tashqi siyosati bo‘yicha Karnegi Aaron fondi mutaxassisi Devid Miller Oq uy faqat uch martagina Yaqin Sharq masalasini hal qilish bo‘yicha sezilarli qadam tashlaganini eslatadi – 1973-75, 1978-79 va 1991 yillar. Uch safar ham amerikaliklar barcha taraflarning manfaatlarini hisobga olishgan.«Yechim AQShning xatti-harakatlari taraflarning barchasida birdek ishonch uyg‘ota olishida. Qiyin masalalarni hal qilishda bemalol birga bo‘lish mumkin bo‘lgan xolis o‘rtakash obro‘yini qaytarish zarur», deb hisoblaydi Miller.Ekspertning fikricha, Donald Tramp ma’muriyati kutilganning aksini qilgan – Isroilning advokati bo‘lib olgan.Tramp ma’muriyati hududning boshqa tomonlari bilan bir necha tarixiy kelishuvlarga erishgan, biroq Falastin-Isroil masalasiga kelganda falastinliklar ishtirokisiz avvaldan tayyorlab qo‘yilgan rejani taqdim qilgandi.Economist

nashrning fikricha, AQShning yangi prezidenti Jo Bayden Yaqin Sharqni o‘z prioritetylari qatorida ko‘rmayotgani haqidagi signallarni beryapti, xolos. Falastinliklar shaharga da’vosidan avvalo diniy e’tiqod tufayli voz kechmaydi. Isroilning esa, Iordan daryosining g‘arbiy sohilida 700 ming aholisi yashaydigan manzilgohlari mavjud bo‘lib, ularning 200 ming nafari bevosita Quddus yaqinida istiqomat qiladi. Dastlabki kelishuvlarga ko‘ra, Falastin davlati barpo etilgach, bu manzilgohlarning bir nechta Isroil ixtiyorida qoladi. Isroil uchun Quddus nafaqat tarixiy-diniy balki, xavfsizlik masalasi nazorati uchun ham kerak.

Xulosa: G‘azo sektoridagi ziddiyat ortidan gumanitar yordam sifatida milliardlab dollar kelib tushgan (alohida davlatlarning terrorchi guruhlarni moliyalashtirishini hisobga olmaganda). Biroq jahon hamjamiyatining toqati va hamyoni o‘lchovsiz emas va Isroildagi hukumat o‘zgorganidan foydalanib, tomonlarni «ikki millat uchun ikki davlat» konsepsiysi muhokamasiga qaytarishi mumkin.

Foydanilgan Adabiyotlar ro’yxati

Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУХОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).

Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG’LIQ IJTIMOIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.

Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.